



LIRIK SHOIR – MAVLONO LUTFIYNING IJOD YO'LI

Abdurasulova Tursunoy Abduvoxid qizi

Qo'qon Universiteti Andijon Filiali IT va Ijtimoiy-Gumanitar fanlar fakulteti

Filologiya va tillarni o'qitish o'zbek tili yo'nalishi 25-09-guruh talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili, lirik she'riyat taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan Movlono Lutfiy ijod yo'li yoritiladi. Unda shoirning hayoti, adabiy merosi, she'rlarining mavzu doirasi hamda badiiy mahorati tahlil qilinadi. Lutfiy lirikasiga xos bo'lgan ishqiy kechinmalar, insoniy tuyg'ular, nozik tasvir vositalari va til boyligi misollar asosida ochib beriladi. Shuningdek, shoir ijodining o'zbek adabiyoti tarixidagi o'rni va ahamiyati haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Lutfiy, lirik shoir, mumtoz adabiyot, ishqiy lirika, badiiy mahorat, she'riyat, adabiy meros.

Abstract. This article examines the creative path of Mevlana Lutfi, a prominent representative of Uzbek classical literature and a great contributor to the development of lyric poetry. It analyzes the poet's life, literary heritage, thematic scope of his poems, and artistic skill. Romantic experiences, human feelings, subtle means of imagery, and richness of language characteristic of Lutfi's lyrics are revealed on the basis of examples. It also discusses the role and significance of the poet's work in the history of Uzbek literature.

Keywords: Lutfi, lyric poet, classical literature, romantic lyrics, artistic skill, poetry, literary heritage.

Аннотация. В данной статье рассматривается творческий путь Мевланы Лутфи, выдающегося представителя узбекской классической литературы и значительного вкладчика в развитие лирической поэзии. Анализируются



жизнь поэта, его литературное наследие, тематическая широта его стихов и художественное мастерство. На примерах раскрываются романтические переживания, человеческие чувства, тонкие средства образности и богатство языка, характерные для лирики Лутфи. Также обсуждается роль и значение творчества поэта в истории узбекской литературы.

Ключевые слова: Лутфи, лирический поэт, классическая литература, романтическая лирика, художественное мастерство, поэзия, литературное наследие.

O'zbek mumtoz adabiyoti ko'p asrlilik boy ma'naviy merosga ega bo'lib, unda inson qalbinin eng nozik kechinmalari, muhabbat, sadoqat, go'zallik va hayot mazmuni yuksak badiiy ifoda etilgan. Ana shu adabiy xazinanin shakllanishi va taraqqiyotida ko'plab iste'dodli ijodkorlar qatorida Movlono Lutfiy ham alohida o'rin egallaydi. U o'zining samimiy, ta'sirchan va nafis lirikasi bilan o'zbek she'riyatida o'chmas iz qoldirgan shoirlardan biridir.

Lutfiy – o'zbek adabiyotining XV asr ikkinchi yarmigacha bo'lgan davrlardagi eng mashhur lirik shoir. Shuning uchun ham zamonasining ahli adabi va ahli fuzalosi uni malik ul-kalom", ya'ni "so'z podshosi" deb e'zozlangan. Manbalarda taxallusi oldidan "ulug' ustod" ma'nosidagi "Mavlono" sifatining qo'shib tilga olinishi ham shundan. Obro'yi va shuhrati juda yuksak darajaga yetgan edi. Alisher Navoiy uni, o'zining ustozlaridan biri, deb biladi. Buni shoirlar haqidagi "Majolis un-nafois" tazkirasida shu ulug' shoir haqida aytilgan ushbu iliq so'zlar ham isbotlaydi: "Mavlono Lutfiy o'z zamonasining malik ul-kalomi erdi, forsiy va turkiyda naziri yo'q erdi... va turkcha devoni ham mashhurur".

Navoiyning "Nasomiy ul-muhabbat min shamoyim ul-futuvvat" degan tasavvuf vakillari – shayx -avliyolar to'g'risidagi tazkirasida esa Lutfiyning uzoq umr ko'rgani va qabri haqida ham qimmatli ma'lumot beriladi: "...To'qson to'qqiz yoshida olamdin o'tdi. Qabri Dehikanordadur, o'z maskani erdi".



Bundan shoirning Hirotda hayot kechirgani, o'zi yashagan Dehikanor degan qishloqda dafn etilganini bilib olamiz. Lutfiy milodiy 1366-yili tug'ilib, 1465-yili vafot etgan. Bu ustoz shoir dunyodan o'tganda Alisher Navoiy 24 yoshda edi.

XV asrning birinchi yarmida o'zbek tilida yaratilgan "Gul va Navro'z" dostoni sho'rolar davrida uzoq yillar Lutfiyning asari sifatida xato taxmin etib kelingan edi. Ammo keying tadqiqotlar bu doston o'sha davrda yashab, ijod etgan shoir Haydar Xorazmiy qalamiga mansub ekanini ko'rsatdi.

Lutfiyning Alisher Navoiy o'zigacha bo'lgan o'zbek she'riyatining eng kuchli, eng taniqli shoiri sifatida baholaydi. U Sakkokiy, Haydar Xorazmiy, Atoyi, Yaqiniy, Gadoiy kabi o'zbek shoirlarini sanay turib, o'zbek she'riyatida " mashhur forsiy shoirlar muqobalasida kishi paydo bo'lmagan"ini aytadi. Ammo ular orasida Lutfiyning alohida ajratib ko'rsatadi: "...Bir Mavlono Lutfiydin o'zgakim, bir necha matlalar borkim, tab' ahli qoshida o'qusa, bo'lur". Bundan anglashiladiki, Lutfiy Navoiygacha bo'lgan davrning eng oldi o'zbek shoiri edi.

Bizgacha Lutfiy turkiy devonining XVI-XX asrlar mobaynida ko'chirilgan jami 33 nusxasi yetib kelgan. Bu qo'lyozmalar dunyoning turli shaharlaridagi e'tiborli kutubxona va qo'lyozmalar xazinalarida saqlanadi.

Olimlarning hisob-kitobiga ko'ra, shoir merosining umumiy miqdori -3 ming baytga yaqin. Buning 75 foizini g'azal janri namunalari tashkil etadi. Shoir, g'azaldan tashqari, qit'a, ruboiy, tuyuq va farq janrlarida ham ijod qilgan.

Lutfiy lirikasi faqat o'zbek she'riyati vakillarigagina emas, boshqa turkiy xalqlar, jumladan, turkman, ozarbayjon, usmonli turk shoirlari ijodiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

Shoirning hayoti va ijodi adabiyot darsliklarida alohida o'rin tutadi, chunki u o'zining lirik she'riyati orqali – ishq, hijron, visol, inson, ruhiy kechinmalari kabi chuqur mavzularni soda, samimiy va badiiy ifoda bilan o'quvchi qalbiga yetkazgan. Buni quyidagi g'azali orqali ham kuzatish mumkin:

“XOH INON, XOH INONMA”



Sensan sevarim, xoh inon, xoh inonma,
Qondur jigarim,xoh inon,xoh inonma.

Hijron kechasi charxi falakka yetar, ey moh,
Ohi saharim,xoh inon, xoh inonma.

Haqqoki, qilich kelsa boshimg'a eshikingdin
Yo'qtur guzarim,xoh inon,xoh inonma.

Usruk ko'zing ashkolina har gah nazar etsam,
Qolmas xabarim,xoh inon, xoh inonma.

Yoqub bikin ko'p yig'idin qolmadi sensiz,
Nuri basarim,xoh inon,xoh inonma.

Oy yuzung'a ko'z solg'ali o'zga kishi birla,
Yo'qtur nazarim,xoh inon,xoh inonma.

Ishq o'tida Lutfiy yuzi oltunni yoshurdi,
Ey siymbarim,xoh inon,xoh inonma.

Bu g'azal tamoman turkona ruhda bitilgan. Tilimizda kelib chiqishi jihatidan sof o'zbekcha bo'lgan so'zlardan tashqari, fors-tojikcha hamda arabcha kalimalar ham ko'p uchraydi.

Mavlono Lutfiy 1465-yilda Hirot shahrida vafot etgan. Bobur nomli xalqaro jamoat fondi tashabbusi bilan 2006-yili Hirot yaqinida joylashgan Dehikanor qishlog'idagi Lutfiy qabri aniqlashtirilib, u yerda o'zbek milliy uslubida ayvonli yangi maqbarasi bunyod etildi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1.8-sinf Adabiyot darsligi 44-bet:

2.Tarixiy adabiyot manbalar-zamondosh tazkiranavislar (Davlatshoh Samarqandiy, Xondamir va boshqalar) Lutfiy ijodi haqida qaydlar bergani.